

BOLALARNING KITOBLARGA NISBATAN MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAK KITOBLARNING O'RNI

Nurmurodova Ozoda Zokirjon qizi

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat instituti

Magistratura talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ertaklarning mazmuni va mohiyati, ularning bolalarni kitob o'qishga jalb qilishdagi o'rni, bir qancha olimlarning bu boradagi fikrlari, ota - onalar zimmasiga yuklanadigan ma'suliyatlar hamda ertaklarning bolalarga o'tkazadigan tasiri dalillar asosida yoritib o'tilgan va fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ertaklar, intellektual salohiyati, uydirma, takrorlanuvchi yozilish, bashorat, xabardorlik, tinglash, axloqiy.

Abstract: This article discusses the content and essence of fairy tales, their role in encouraging children to read books, the opinions of several scholars on this matter, the responsibilities of parents, and the impact that fairy tales have on children, all supported by evidence and reasoning.

Keywords: fairy tales, intellectual potential, fictional, repetitive writing, prediction, awareness, listening, moral.

Bola dunyoqarashining shakllanishida ertaklarning o'rni beqiyos. Kichkintoylar ertaklarning sehrli olamiga sayr qilish orqali murg'ak tafakkurlarida haqiqiy hayot haqida tasavvur hosil qilish bilan birga jajji qalblarida ezgulikka muhabbat va yovuzlikka nafrat hissini tuyadilar. Ertaklar bolajonlar uchun ulg'ayish jarayonidagi nafaqat oddiy qadamlardan biri, balki ularni yer yuzidagi voqea va hodisalardan boxabar qila oladigan qudratli kuch hamdir.

Ertaklar xalq ogʻzaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biridir hamda toʻqima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar sifatida tariff beriladi. Asosan, nasr shaklida yaratiladi. Mahmud Koshgʻariyning "[Devonu lugʻotit turk](#)" asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani ogʻzaki tarzda hikoya qilish maʼnosini bildiradi.

Ertak hayot haqiqatining hayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib va gʻaroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning gʻayritabiiy jasorati kabi misli koʻrilmagan voqea va hodisalarning aks ettirilishi bilan xarakterlanadi. Ertaklar oʻzida bir olam sehrli va qiziqarli olamlarni jalb qila olganligi uchun ham bolalarni mutolaaga nisbatan ilk qarashlarini shakllantirishda katta roʻl oʻynashi mumkin. Shu vaqtgacha ilm sohasida qilinadigan har qanday faoliyatlar yoki kashfiyotlar negizida insonni toʻgʻri turmush tarzi va maʼnaviyatga yoʻnaltirish kabi ulugʻ gʻoyalar yotadi. Shu sababli ham mutolaaga bolalarning erta yoshlardan jalb qilinishidan ham asosiy maqsad ularni bilimli qilish va ziyolilar qatoriga qoʻshishdir. Gapning isboti oʻlaroq Albert Eynshteynning quyidagi fikri keltiriladi: "Farzandingizning aqlli boʻlishini istasangiz unga ertak oʻqib bering, agar juda ham aqlli boʻlishini istasangiz unga koʻproq ertak oʻqib bering". [1]

Eng muhim juhatlardan biri shuki, bolalar ertaklar bilan hayotining eng boshlangʻich nuqtalarida roʻbora boʻladi. Aynan shu jihati ularning kitob mutolaasiga erta yoshlardan boshlab muhabbat qoʻyishida katta omil boʻlishi mumkin. Olimlar tomonidan qilingan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ertaklar bola miyasining shakllanishida juda katta ijoyib roʻl oʻynaydi.[2] Ota – onalar tomonidan oʻqib beriladigan qiziqarli ertak kitoblar tasiri asosida bolalarning tafakkur darajasi rivojlanishi kengayadi.



Maktabgacha yoshda ertakni idrok etish bolaning o'ziga xos faoliyatiga aylanadi, bu ajoyib jozibali kuchga ega bo'lib, bolaga erkin orzu qilish va xayol surish imkonini beradi. B.Bettelxaym, E.Fromm, K.Yung kabi olimlar ertakning bola shaxsining rivojlanishiga ta'siri haqida fikrlar bildirishgan. A.V. Gnezdilov, T.M. Grabenko, O.V. Zashchirinskaya, T.D.Zinkevich-Evstigneeva, M.A. Povalyaeva, N. Pogosova, D.Yu. Sokolov, S.A. Chernyaeva va boshqalar ushbu muammoni o'rganish orqali shu sohani rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. Bizga oddiygina ko'ringan ertaklar haqida bir qadar izlanishlar olib borilganligiga guvoh bo'ldik. Shu jihatlarning barini inobatga olgan holatda agar bolalarni dastlabki vaqtlarda kitobxonlikka jalb qilishda ertaklardan qurol sifatida foydalana olsak, ular yengib bo'lmas tafakkur sohiblariga aylana olishlari mumkin. Nafaqat kitobxonlik, balki, har qaday faoliyat ham aynan bolaning erta davrlaridan boshlab yo'lga qo'yilsa, albatta o'z natijasini bermasdan qolmaydi. Nimagaki, bugungi kunda jamiyatni kitobxonlikka jalb qilish nihoyatda dolzarb masalaga aylanib qolmoqda.

Ertaklar psixologik, terapevtik va rivojlanish ishlari uchun eng samarali usuldir. Ertaklar orqali terapiya qilish, D.Yu.Sokolovning fikriga ko'ra, bola o'z shaxsiyatini ochish va o'rganish, resurslarini aniqlash va rivojlantirish uchun xavfsiz muhit yaratadi. Ko'pincha ertaklarda qo'llaniladigan sehr va ertak muhiti bolaning atrof-muhitini quradigan, uning diqqat markazini va imkoniyatlar arsenalini kengaytiradigan sun'iy ramka (chegara) dan tashqariga chiqishga imkon beradi. Bu voqealarni rivojlantirish va hayotiy muammolarni hal qilishning boshqa mumkin bo'lgan usullarini ko'rishga yordam beradi.[3]

Ertaklarning bola tafakkuri rivojlanishi uchun beqiyos o'rni borligi haqida so'z yuritildi. Unda nima uchun bugungi kunda bazi bir ota onalar o'z dilbandlarini kitobxon qilish uchun shu oddiygina usuldan foylanishni ham eplay olishmayapti yoki shunchalik ularning o'zlarida bu haqda yetarlicha tassavvur yo'q. Biz ko'pincha ota -

onolari tomonidan doimiy tarzda kitoblar mutolaa qilib beriladigan bolajonlarni ko'rganimizda, ularning intellektual salohiyati bilan teng qurlari orasida ajralib turishiga guvoh bo'lamiz hamda aynan yoshlik chog'idan odatlantirilgan mana shunday ijobiy jarayonlar kelajakda har bir yosh avlodning hayotida muqim o'rin olish ehtimoli bunday hodisalardan uzoqda yurganlardan nisbatan yetarlicha yuqori bo'ladi.


Ertaklarda xuddi hikoyalarga o'xshab to'g'ridan-to'g'ri ma'ruzalar mavjud emas. Ertakda hech kim bolani "to'g'ri yashashga" o'rgatmaydi, ya'ni to'g'ri yashash usullari tushuntirilmaydi. Ertak hikoyasi voqealari tabiiy va mantiqiy ravishda bir-birini to'ldirib boradi. Shunday qilib, bola bu dunyoda mavjud bo'lgan sabab-oqibat munosabatlarini, o'zligini his qiladi va o'rganadi. Ertak, A.V.Gnezdilovning fikricha, ichki va tashqi dunyoni o'zgartirish, uning go'zalligi va o'ziga xosligini ko'rish va qabul qilish imkonini beradi[4]. Ertaklar o'qishni katta yoshdagi kitobxonlar guruhi tanlamaydi. Bu turdagi kitoblar asosan faqat bolajonlar jamoasi tomonidan tanlanadi va eng qizig'i shundaki, kattalar singari bolajonlar bu kitoblardan dunyo qarashini kengaytirish maqsadida ongli ravishta tanlab o'qishmaydi. Kitoblarning rang baranglik va tasviriy vostitalari yordamida o'qishga jalb qiladigan kitoblar, o'z vazifasini g'ayri tabiiy tarzda bolajonlar ichki olamini shakllantirish orqali yakunlaydi. Lekin eng muhim tarafi shundaki, bu ishlar bolajonlar emas balki dastlabki davrlarda ota – onalar raxbarligida amalga oshiriladi.

T.D. Zinkevich-Yevstigneyev katta maktabgacha yoshdagi bola uchun, eng muhimi, uning ichki olamini, hissiy va kognitiv sohalarini rivojlantirish lozim deb biladi. Bu yosh davrida hissiyotlar bolaning faoliyatining asosiy tartibga soluvchisi hisoblanadi. Uning intellekti hali yaxshi rivojlanmagan, u muhokama qilishga hali tayyor emas, u faqat o'ynashi mumkin xolos va ertaklar olami bunday o'yinlar uchun ajoyib tarzda moslashtirilgan. Zero, u dunyoqarashni kengaytiradi, dunyoning yaxlit ko'rinishini shakllantiradi, rolli xatti-harakatlar ko'nikmalarini egallashga yordam beradi, kognitiv va hissiy-irodaviy sohaning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ertaklar bolalarning his-tuyg'ularini yanayam boyitadi. Ertak aytish, hikoya qilish natijasida,

bolalar qahramonga hamdard bo'ladilar, u bilan birga uning muvaffaqiyatsizliklari va g'alabalarini boshdan kechiradilar.

Bolalar ertak tinglar ekan, uni o'z tasavvurida shakillantiradi. Ular ertakdagi muhit va qahramonlarni tasavvur qilishadi. Shunday qilib, ular ertak jarayonlarini spektakl tarzda o'z tasavvurlarida ko'radilar. Shuningdek, ertak eshitish jarayonida bolaning matnni tushunishi va undagi semantik aloqalarni topishi ancha osonlashadi, bu albatta, mantiqiy tafakkurning rivojlanishiga samarali ta'sir qiladi.

Bolalarni kitob o'qishga erta vaqtlardan boshlab odatlantirishda ertaklarning o'zni beqiyos ekanligini bir necha bora takidladik. Shu xulosalarimizdan kelib chiqib, bu jarayonlarga faktlar bilan yondashishga harakat qilamiz.



1. Qiziqarli va o'zaro bog'langan mavzular

Ertaklar ko'pincha yaxshilik va yomonlik, sevgi, do'stlik va adolat kabi jamiyatimizdagi umumiy mavzularda bo'ladi. Ushbu mavzular jazzi kitobxonlar tomonidan mutolaa qilinganda ularni hikoyaga jalb qila oladi. Biz buni tushuntirish uchun oddiygina hammamizga ma'lum bo'lgan "Zumrat va Qimmat" ertagiga murojat qilishimiz mumkin. Bu ertak mehribonlik, adolat va yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasi kabi universal mavzularga qaratilgan. O'quvchilar, ayniqsa bolalar, qahramonning hissiy kechinmalariga osongina bog'lanishlari mumkin.

2. Oddiy va takrorlanuvchi yozilish uslubi

Ertaklardagi yozilish uslubi ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri va takroriy bo'lib, bolalarga ergashish va tushunishni osonlashtiradi. Iboralar va qoliplarni takrorlay bolalar tilini rivojlantirishga katta xissa qo'shadi. Ertaklarimiz boshida qo'llaniladigan ajoyib va tovushdor jumlarimizni keltirishimiz mumkin: Bir bor ekan, bir yo'q ekan....., qadim zamonlarda bir podisho o'tgan ekan..... Aynan mana shunday

sehrli jumlalarining o'zidanoq bolajonlarda kitoblarga nisbatan ijobiy ko'z qarash va mexrni tarbiyalay olishimiz mumkin.

3. Bashorat qilinadigan ertaklarning tuzilishi

Ertaklar odatda aniq tuzilishga amal qiladi: muammo yuzaga keladi, qahramonlar qiyinchiliklarga duch keladi va albatta yakunida yechimga erishiladi. Bunday bashoratlilik bolalarga kelgusida nima bo'lishini oldindan bilishga yordam beradi, tushunishni yaxshilaydi. Bu mulohozalarimizni tushuntirish uchun biz o'zbek xalq ertaklarining deyarli har birida uchraydigan yaxshilikning yomonlik ustidan qiladigan g'alabasi haqidagi misollarni keltirishimiz mumkin va zamirida aynan mana shunday ibratli voqealiklarni oladigan ertaklar albatta bolalar qalbida kitoblarga nisbatan ijobiy ko'z qarashni shakllantira oladi.

4. Illyustratsiyalar tushunishga yordam beradi

Ko'pgina ertaklar illyustratsiyalar bilan birga keladi, bu esa yosh o'quvchilarga voqeani tasavvur qilish va matnni to'liqroq tushunishga yordam beradi. Vizual belgilar savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ertak kitoblari boshqa turdagi kitoblarga qaraganda matnlarga nisbatan rasmlarni ko'proq qamrab oladi va bu rasmlarda ranglar uyg'unligi jajji kitobxonlarda uni o'qishdan ko'ra rasmlarni tomosha qilishga jalb qiladi. Bu esa ularning dunyo qarashini yana ham kengaytirishga xizmat qiladi.

5. Yangi lug'at bilan tanishish

Oddiy bo'lsa-da, ertaklar bolalarni kundalik suhbatda uchramasligi mumkin bo'lgan yangi so'z va tushunchalar bilan ham tanishtiradi. Bu ularning so'z boyligini qiziqarli va tushunarli tarzda kengaytiradi. Bolalar kitoblardan hayoti davomida birinchi marta eshitayotgan yangi jumlar, narsalarning nomi yoki hissiyotlarni ifoda etishning yangicha ko'rinishlarida qo'llaniladigan iboralarni ham o'rganib olishi mumkin. Kitobxonlikka erta yoshlardan boshlab jalb qilinishning ham asl mohiyatlari aynan bolalarni erta yoshlardan boshlab tarbiyalashdir.

6. Axloqiy saboqlar

Ertaklarda ko'pincha bolalarga mehr-oqibat, halollik, jasorat yoki qat'iyat kabi qadriyatlarni o'rgatadigan saboqlar mavjud. Ushbu darslar mulohaza yuritish va muhokama qilish imkoniyatini beradi. Erta davrlardan boshlab to'g'ri yo'lga qo'yiladigan mutolaa jarayoni yosh avlodga hattoki ota onasi tomonidan ham aytilmaydigan hayot darslarini o'rgatib borishi mumkin. Mutolaaning yana bir muhim shartlaridan biri ham yosh avlod qalbida insoniylik tuyg'ularini shakllantirishdan iboratdir.

7. Tinglash ko'nikmalarini shakllantirish

Ertaklar ko'pincha ovoz chiqarib o'qiladi, bu esa bolalarda tinglash ko'nikmalarini, diqqatni jamlash va hikoyani davom ettirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalarga erta davrlardan mutolaa qilib berish ularda kelgusida ham berilayotgan ma'lumotlarni yaxshi o'zlashtirishga imkon beradi. Izlanishlarning natijalariga ko'ra, mutolaa bilan doimiy shug'ullanadigan insonlarda matematika bilan bog'liq muommolarni ham hal qilish ancha yuqori darajada bo'lar ekan.

8. Madaniy va ijtimoiy xabardorlik

Ertaklar turli madaniyatlar va ijtimoiy me'yorlarga bir oyna kabi desak adashmagan bo'lamiz. Ko'pgina milliy ertaklar o'ziga xos madaniy an'analardan kelib chiqqan bo'lib, inson tajribasiga turlicha qarashlarni ta'minlaydi. Bolalarga o'z xalqi ertaklaridan tashqari jahon xalqlari ertaklaridan ham mutolaa qilib borilsa ular ongida boshqa xalqlar turmush tarzi haqida ham tasavvurlar paydo bo'lishiga sezilarli darajada xissa qo'shgan bo'lamiz.

Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki, bizga nihoyatda oddiy bo'lib ko'rinadigan mana shunday ertaklar orqali, biz nihoyatda cheksiz ajoyibotlar olamiga egalik qilishimiz mumkin bo'lar ekanmiz. Faqatgina bizdan talab qilinadigan oddiygina

vazifa farzandlarimizda kitobga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirishdir va bunday jarayonlarda ertaklar dastlabki tirgak vazifalarini bajarib berar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Winick, S. Einstein's Folklore / S.Winick// The Library of Congress. – 2013. – 18 Sep. – P7.
- 2.<https://www.fairfaxcounty.gov/library/branch-out/importance-fairy-tales-preschool-development>
3. Жалилова, С. Мактабгача ёшдаги болалар психологияси/ С.Жалилова //. – 2010. – Б. 49.
4. Гнездилов, А. Авторская сказкатерапия / А.Гнездилов //. – Москва, 1991. - 75с.
5. Qurbonova, S. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini shakllantirishda ertaklarning o'rni / S. Qurbonova // Ilmiy tadqiqot va jamiyat muommolari jurnali. - 2018. – 17-iyun. - B.12.